

SHIMOLIY NUROTA TOG‘ TIZMASIDA TOPILGAN PALEOLIT TOPILMALARI

Сайфуллаев Б. Қ.

¹Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос
агентлиги Я.Ғ. Гуломов номидаги Самарқанд
археология институти katta ilmiy hodimi

Ungalov L. A.

Sh.R. Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti 2-bosqich doktoranti.

Izoh: Maqola so‘nggi yillarda Nurota tog‘ tizmasining shimoliy qismi janubiy etaklarida joylashgan, Qo‘shrabot tumaniga qarashli Pangat va Mirishkor qishloqlari hududlaridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalarning texnik-tipologik tadqiqiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda yangi topilmalar texnik-tipologik davrlashtirildi va analogiya xulosalari berildi.

Аннотация: Статья посвящена технико-типологическому исследованию находок древнего каменного века, обнаруженных в районе сел Пангат и Миришкор Кошработского района, расположенных в южных предгорьях северной части Нуратинского горного хребта. В ходе исследования новые данные были классифицированы технически и типологически и даны аналогичные выводы.

Abstract: The article is devoted to the technical-typological research of the ancient stone age findings found in the areas of Pangat and Mirishkor villages of Koshrabot district, located in the southern foothills of the northern part of the Nurota mountain range. In the study, new findings were classified technically and typologically and analogical conclusions were given.

Kirish. Nurota tog‘lari O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, eng baland cho‘qqisi 2169 m (Hayotboshi tog‘i) va sharqdan g‘arbga qarab Jizzax vohasidan Nurotagacha cho‘zilgan. Nurota tog‘lari shimoliy-g‘arbga tomon 180 km uzunlikka ega. O‘rtacha balandligi 1000 — 1500 m va paleozoyning ohaktosh, qumtosh va slaneslaridan, metamorfik jinslardan tashkil topgan.

Bir tomoni Qizilqum cho‘li va ikkinchi tomoni Zarafshon daryosi vodiylariga tutashgan Nurota tog‘ tizmasi hududlari ilk pleystotsen davridan boshlab odamlar yashashi uchun qulay paleoekologik sharoitlarga ega bo‘lgan. Nisbatan kam o‘rganilgan hududdan ko‘plab tosh davriga oid yodgorliklar topilgan.

Nurota tog' tizmasida Samarqand davlat universiteti tosh davri olimlari guruhi va Samarqand arxeologiya instituti tosh davri bo'limi ilmiy hodimlari tadqiqotlari 2000-yillarning dastlabki o'n yilligidan faollashdi deb hisoblaymiz. Tadqiqotlar natijalar qator ilmiy nashrlarda chop etildi. Shimoliy va Janubiy Nurota tog' tizmalarida yangi topilmajoylar qayd etildi. (Sayfullaev, Ergashev, Raximov, Rajabov, Allayorov, Pardaev, 2012. B. 189), (Suleymanov, Aripdjanov, Sayfullaev, Rajabov, Nishiaki, Naganuma, Nakata, Miki, 2016. S. 302). (Sayfullaev, Ungalov, 2023. B. 61)

Metodlar. 2024-yilda Samarqand arxeologiya instituti va Samarqand davlat universiteti paleolitchilar guruhi tomonidan Shimoliy Nurota tog' tizmasining janubiy etaklaridagi Qo'shrabot tumani hududida joylashgan Qoratovning janubiy adirliklarida, asosan Pangat va Mirishkor qishloqlarida so'nggi o'tgan yillarda olib borilgan dala-tadqiqot ishlari natijasida bir qator yangi topilmajoylar aniqlandi (1-rasm). Yig'ilgan arxeologik ashyolar qadimgi odamlar tomonidan ishlov berilgan tosh buyumlardan tarkib topgan. Tosh ashyolarini tadqiq qilishda M. Breziyon tomonidan ishlab chiqilgan «texnik-tipologik» (Brezillon, 1971. R. 127-272), J. Peligrinning «Toshlarni chaqmoqlashning texnologik» (Pelegrin J, 2000. P. 73-86) hamda D.A. Timofeevning "mexanik eroziya yoki fizik ta'sirlar" (Timofeev, 1978. S. 271) kabi usullaridan foydalanildi.

Materiallar. Saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko'ra topilgan materiallar 4 ta kompleksga ajratildi.

1-kompleks. Ushbu kompleksga 5 ta tosh artefakt kiritildi. Ularning uchalagi ham mahalliy va turli darajada kremniylashgan oxaktoshlardan ishlangan bo'lib, qalin sarg'ish patina bilan qoplangan. Kompleks artefaktlaridan biri yuraksimon bifas bo'lib, hajmi 120x110x41 mm. Qurol bifasial yo'nishlar yordamida qisman ishlov berilgan va qirralari qo'shimcha retushlanmagan, balki kichik yo'nishlar yordamida tekislangan (2-rasm). Navbatdagi ikkala buyum ham bifaslar bo'lib, ularning shakli gardishsimon va hajmlari 98x84x31 mm - 103x95x30 mm (3-4-rasmlar). Ushbu gardishsimon bifaslardan biri ikki xil patinizatsiyalashgan. Uning yuzalaridan biridagi yo'nilg'i negativlarining saqlanish darajasi birinchi kompleksga xos bo'lsa, ikkinchi yuzasidagi negativ izlari nisbatan yorqinroq. Biroq bu yuzada bir dona qadimgi negativ izi ham saqlanib qolgan. Har ikkala gardishsimon bifaslarning ish qirralari retushlash emas, balki kichik bifasial yo'nishlar yordamida tekislangan. Shakllari yumaloq, ko'ndalang kesmada bir taraflama bo'rtib chiqqan. Kolleksiyaning bifaslari tosh plitkalar va yirik uchirindilardan ishlangan.

To'plamda bir dona chopping mavjud bo'lib, u ham bifaslar singari sarg'ish patinali kremniylashgan oxaktosh galkadan ishlangan va hajmi 94x86x40 mm. Qurolning ish qirrasi bifasial yo'nishlar yordamida ishlov berilgan va shakli zigzagsimon (5-rasm). Biroq ushbu qurol ham ikki xil patinaga ega. Dastlabki bosqichda u chopper bo'lgan bo'lishi mumkin.

Biroq keyingi bosqichda ikkinchi yuzadan yo'nishlar yordamida choppingga aylantirilgan. Negaki buyumning bir yuzasidagi yo'nilg'i negativlari ikkinchi yuzasidagilarga nisbatan kamroq patinizatsiyalashgan. Qurolning ish qirralari zigzagsimon.

Kolleksiyada bir dona levallua uchirindi aniqlangan bo'lib, hajmi 74x50x19 mm. Uchirindining zarb maydonchasi tekis va orqa tarafiga o'ta qiyalashgan. Uchirindining profili biroz qayrilgan, dorsalidagi yo'nilg'i negativlari radial markazga intiluvchan xarakterga ega (6-rasm).

Shunday qilib, birinchi kompleksda saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko'ra yuraksimon, disksimon bifaslardan tashqari, bittadan chopping va levallua uchirindi ham aniqlandi. Disksimon bifaslardan biri va to'plamdagi yagona chopping ikki xilda patinizatsiyalashgan. Bu xolat ushbu materiallarning turli davrlarda hukm surgan etalon yodgorlikdan kelib qolganligidan dalolat beradi. Ushbu materiallar yuqorida ta'kidlaganimizdek, ikkinchi to'lqin migratsiya natijasi bo'lib, mahalliy birinchi to'lqinning galkali qurollari bilan aralashgan. Kolleksiyada bifaslar bilan birga levallua texnikasining uchrashi kompleksni ashelga xos industriyalar qatoriga kiritish imkonini beradi. Analogiyalar sifatida kam sonli bo'lishiga qaramasdan, ushbu kompleks Yevrosiyaning ikkinchi migratsion to'lqiniga xos ashelga oid industriyalari bilan qiyoslanishi mumkin. Kompleksdagi qurollarning yirikligi va saqlanish darajasidan tashqari, qadimgi ashelga oid industriyalar qirralarining qo'shimcha retushlar emas, balki kichik yo'nishlar yordamida tekislanganligi Yevrosiyaning ikkinchi to'lqin migrantlari bilan bog'lab turadi. Davriy jihatdan qiyosiy tahlillarga ko'ra ushbu to'plamga o'xshash industriyalar Yevrosiyoda bundan taxminan 500-400 ming yillar muqaddam keng tarqalgan.

2-kompleks. Ushbu kompleksdan ham beshta artefakt aniqlandi. Ular orasida 1 ta nukleus, 2 ta bifas, bittadan chopper va kliverlar uchraydi. Ushbu kolleksiyaning tosh buyumlari ham mahalliy kremniylashgan oxaktoshlardan ishlangan. Ular birinchi kompleks artefaktlaridan nisbatan kamroq patinizatsiyalashganligi (sarg'ish-kulrangli patina bilan qoplanganligi) va yo'nilg'i negativlarining nisbatan yorqinroq aks etganligi bilan ajralib turadi. Biroq ishlanish texnikasi birinchi kompleks tosh buyumlariga o'xshash. To'plamning yagona ko'p zarb maydonli nukleusining hajmi 147x74x58 mm va undan yirik hajmli uchirindilar sistemasiz ravishda chaqmoqlab olingan (qirradan chaqmoqlash). O'zakning yuzalarida teginilmagan galkali qobiqning katta qismi saqlanib qolgan (7-rasm). Kolleksiyaning bifaslaridan biri yuraksimon bo'lib, hajmi 120x130x44 mm. U yirik bifasial yo'nishlar yordamida shakllantirilgan, ish qirralari esa kichik epizodik yo'nishlar yordamida qo'shimcha tekislangan. Ko'ndalang kesmada bir taraflama bo'rtib chiqqan va ish qirralari zigzagsimon (8-rasm). To'plamning navbatdagi bifasi ham yuraksimon shaklli bo'lib, birinchisiga nisbatan kichikroq hajmga ega - 95x88x35 mm. Uning ish yuzalari bir tarafdin to'liq, ikkinchi tarafdin

esa qisman yo'nishlar yordamida ishlov berilgan, ya'ni yuzalaridan birida tabiiy galkali qobig'i qoldiqlarining katta qismini saqlab qolgan. Ish qirralari epizodik, yupqa va kichik yo'nishlar yordamida qo'shimcha ishlov berilgan. Ushbu bifasning xarakterli xususiyati uning uch qismining bir taraflama tik yo'nishlar yordamida sindirib olinganligidadir. Ko'ndalang kesmada qurol bir taraflama bo'rtib chiqqan (9-rasm).

Kompleksda kremniylashgan oxaktoshli uzunchoq va yupqa galkadan ishlangan kliver (clevers - tosh bolta) ham uchraydi va uning hajmi 112x72x17 mm. Boltaning ish qirrasiga galkaning ensiz ko'ndalang tomonlaridan birida kichik bifasial yo'nishlar yordamida shakllantirilgan. Yon qirralari esa epizodik, yupqa va bifasial kichik yo'nishlar yordamida ishlov berilgan (10-rasm).

Kolleksiyada bir dona chopper mavjud bo'lib, hajmi 120x107x37 mm. U kremniylashgan oxaktosh galkadan ishlangan. Qurolning ish qirrasiga bir taraflama o'rta hajmli yo'nishlar va epizodik yupqa retushlar yordamida shakllantirilgan. Ish qirrasining shakli bo'rtib chiqqan va galkaning orqa tarafi to'liq qalin oxakli qoplama bilan qoplangan (11-rasm).

Shunday qilib, Shimoliy Nurota tog' tizmasining janubiy etaklaridan shubhasiz, ilk paleolitning ashelga oid ikkinchi kompleks aniqlandi. To'plamda uchraydigan yuraksimon bifaslar, kliver va chopperlar birinchi kompleks materiallaridan kamroq patinaga uchraganligi va yo'nilg'i negativlarining nisbatan yorqinroq ko'rinishi bilan ajralib turadi. Ta'kidlaganimizdek, birinchi kompleks materiallari orasida ayrim ikki xil patinali (double patinisation), ya'ni ikkinchi kompleks davrida qayta ishlov berilganlik izlari uchraydi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, har ikkala komplekslar yagona yodgorlikni, biroq xronologik jihatdan turli davrlarni o'zida aks ettiradi. Bundan tashqari, birinchi va ikkinchi kompleks materiallari texnik-tipologik jihatdan o'xshash. Ikkinchi kompleks materiallari ham Yevrosiyaning ochiq tipdagi bifasli industriyalari bilan qiyoslanishi mumkin. Analogiyalar va saqlanish darajasiga ko'ra ushbu to'plamning materiallari Yevrosiyoda taxminan 350-300 ming yillar, ya'ni so'nggi ashel davrida keng tarqalgan.

3-kompleks. Ushbu kompleksga 4 ta nukleus, 2 ta uchirindi va 3 ta tosh qurollar kiritildi. Saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko'ra uchinchi kompleks o'rta paleolitga oid deb topildi. To'plamda bifaslar va chopquvchi qurollar umuman uchramaydi. Kolleksiyaning artefaktlari asosan mahalliy qumtosh hamda kremniylashgan oxaktoshlardan ishlangan va sarg'ish-kulrangli muste davriga xos patina bilan qoplangan. To'plamning eng yirik o'zagi bir zarb maydonli bo'lib, hajmi 125x77x45 mm. U yirik uchirindidan ishlangan. Uchirindining keng zarb maydonchasi qo'shimcha tekislashlar yordamida nukleusning zarb maydoniga aylantirilgan va ushbu maydondan bir yo'nalishda yirik va kichik hajmli uchirindilar chaqmoqlab olingan. Biroq bu yo'nilg'i negativlari nukleusning pastki uchiga yetmasdan sinib qolgan. O'zakning orqa tarafi uchirindining ventral yuzasini (qorin qismi – bryushkovaya

storona) saqlab qolgan. Nukleusning ish yuzasida galkali qobiq va oxakli qoplamasining katta qismi saqlangan (12-rasm). Kompleksning navbatdagi o'zagi levallua tipidagi haddan tashqari ishlov berilgan qoldiq nukleus bo'lib, hajmi 75x56x30 mm. U kremniylashgan slanesdan ishlangan va sariq rangli patina bilan qoplangan. Nukleusning ish yuzasi asimmetrik radial markazga intiluvchi yo'nilg'i negativlari bilan qoplangan, zarb maydoni fasetkalashtirilgan va orqa tarafiga biroz qiyalashgan. Biroq so'nggi bosqichda undan levallua uchirindi ekstraksiya qilinmagan. Shakli noto'g'ri to'rtburchaksimon (13-rasm). To'plamda bir dona prizmatik nukleusning proksimal fragmenti mavjud, hajmi 85x36x34 mm. Uning zarb maydoni fasetkalashtirilgan va orqa tarafiga o'ta qiyalashgan. Nukleusdan uzunchoq proporsiyali va subparallel ravishda plastinalar chaqmoqlab olingan, hajmi 83x31x31 mm (14-rasm). To'plamda bir dona nukleussimon bo'lak ham aniqlangan (15-rasm), u kremniylashgan oxaktoshdan ishlangan va hajmi 50x38x30 mm. Kolleksiya bir dona yirik qumtosh uchirindidan ishlangan yonlama tishsimon qurol aniqlandi, hajmi 91x62x33 mm. Qurolning ish qirradi bifasial yo'nishlar va retushlar yordamida ishlov berilgan. Uchirindining zarb maydonchasi fasetkalashtirilgan tekis, dorsalidagi yo'nilg'i negativlari perpendikulyar xarakterga ega. Qurolning zigzagsimon ish qirradi uchirindining o'ng lateralida shakllantirilgan (16-rasm). To'plamda 2 ta iskanasimon qurol ham aniqlangan bo'lib, ularning har ikkalasi ham qumtoshlardan ishlangan (60x62x21 mm va 67x60x22 mm). Iskanasimon qurollardan biri birlamchi uchirindining ko'ndalang proksimalida ventraliga yo'naltirilgan kichik, qiya yo'nishlar yordamida shakllantirilgan va ish qirrasining shakli bo'rtik. Uchirindining chap laterali dorsalga yo'naltirilgan yarim tik va kichik yo'nilg'ilar izlariga ega (17-rasm). Ikkinchi iskanasimon qurol zarb maydonchasi atayin kesilgan uchirindining ko'ndalang distalida bifasial retushlar yordamida shakllantirilgan va ish qirrasining shakli bo'rtik. Uchirindining dorsalidagi (yelkasidagi - spinka) yo'nilg'i negativlari perpendikulyar xarakterga ega (18-rasm). Bunday tosh qurollar Samarqand hududi o'rta paleolit davri komplekslari uchun xos. Kompleksda shuningdek 2 ta uchirindi ham aniqlangan bo'lib, ulardan biri parallel levallua xarakteriga ega (19-rasm) va bunday buyumlar O'rta Zarafshon vohasi o'rta paleolit davri komplekslarida keng tarqalgan.

Shunday qilib, Shimoliy Nurota tog' tizmasiga qarashli Qoratorovning janubiy etaklaridan topilgan 3-kompleksning tosh buyumlari saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko'ra o'rta paleolit davrini xarakterlaydi. Ushbu artefaktlar avvalgi 2 ta komplekslardagidek chuqur patinaga ega emas. Bundan tashqari, 3-kompleksda bifaslar va chopquvchi qurollar umuman uchramaydi. Levallua texnikasi hamda iskanasimon, tishsimon qurollarning mavjudligi ushbu kompleksni O'rta Zarafshon vohasining o'rta paleolit davri yodgorliklari tosh industriyalariga yaqinlashtiradi. Xronologik jihatdan mazkur kompleks so'nggi pleystotsen davrining o'rtalarini xarakterlaydi.

4-kompleks. Shimoliy Nurota tog' tizmasi, Mirishkor qishlog'i Og'ala darasining o'ng sohilidan qadimgi g'or aniqlandi. Bu g'or xalq tilida Rustamkamar deb nomlanib kelgan. G'orning kirish qismi g'arbga qaragan. Biroq u kuchli tektonik harakatlar tufayli qulab, yuvilib ketgan. Shu atrofda Moykamar, Sharshara, Hayotlik, Kaptarkamar, Temirqo'rg'on kabi g'orlar joylashgan.

Shimoliy Nurota tog' tizmasi Qorator hududidan aniqlangan 4-kompleks Moykamar atrofidan topilgan bo'lib, so'nggi paleolit davriga oid. Ushbu materiallar 6 ta tosh artefaktlardan iborat. Bu buyumlardan biri dejet tipidagi konvergent qirg'ich bo'lib, qora rangli mayda qumli qumtosh uchirindidan ishlangan va hajmi 84x54x20 mm. Bu buyum kompozit qurol bo'lib, uchirindining chap laterali (yon qirasi) va proksimali (zarb maydoncha tomoni) hamda o'ng laterali uning medialigacha ventralga yo'naltirilgan botiq yo'nishlar yordamida yupqalashtirilgan. Qirg'ich qirralari uchirindi chap lateralining distalida va ko'ndalang distalida (zarb maydonchaga qarama-qarshi ko'ndalang tomoni) shakllantirilgan. Ish qirralarining shakli bo'rtik. Uchirindining dorsalidagi yo'nilg'i negativlari perpendikulyar xarakterga ega (20-rasm).

Moykamar g'oridan topilgan ikkinchi buyum bilateral qirg'ich bo'lib, qumtoshdan ishlangan va hajmi 110x48x5 mm. Qirg'ich plastinadan ishlangan va qirralari bifasial tangasimon va ordinar retushlar yordamida shakllantirilgan. Ish qirralarining shakli bo'rtik. Plastinaning proksimali ventral tarafdin yupqalashtirilgan (21-rasm). Topilmalar orasida 2 ta uchirindi fragmentlari ham bo'lib, ular kremniylashgan oxaktoshlardan ishlangan. Moykamar g'oridan topilgan tosh buyumlar Zarafshon voxasi so'nggi paleolitga oid komplekslarning materiallariga o'xshash.

Shimoliy Nurota tog' tizmasining janubiy yonbag'irlarida Mirishkor va Pangat qishloqlari oralig'ida amalga oshirilgan arxeologik qidiruv ishlari tufayli O'zbekiston hududida ilk marotaba paleolit davrining turli bosqichlariga oid materiallar aniqlandi. Aytish mumkinki, Nurota tog'lari butun paleolit davrida deyarli uzluksiz istiqomat qilingan bo'lgan.

Xulosa. Shimoliy Nurota tog' tizmasi ilk paleolitning ashelga oid industriyalari sohiblari, ya'ni Afrikadan amalga oshirilgan qadimgi xomo erektuslarning ikkinchi migratsion to'liqini vakillari tomonidan bundan taxminan 500-400 ming yillar muqaddam o'zlashtirilgan va bu madaniyat sezilarli o'zgarishlarsiz 300 minginchi yillargacha hukm surgan, so'ngra ushbu xududga O'rta Zarafshon vohasining o'rta va so'nggi paleolit davri madaniyatlari kirib kelgan. Hududdan topilgan ashelga oid topilmalar nafaqat Nurota tog' tizmasi, balki butun O'zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi yodgorliklar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тимофеев Д.А. Терминология денурации и склонов. – М.: Наука, 1978. -271с.
2. Sayfullaev B.K., Ergashev O.T., Raximov K.A., Rajabov A.Yu., Allayorov O‘., Pardaev Sh.M. Jizzax vohasining paleolit davri // O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar. Samarqand, 2012. B. 189-194.
3. Sayfullaev B., Ungalov L. Nurota tog‘ tizmasining shimoliy qismida aniqlangan tosh davri topilmalari // Markaziy Osiyo tosh davri madaniyatlari chorrahasida. 2023-yil 27 noyabrda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2023. B. 62-67
4. Сулейманов Р.Х., Арипджанов О.Ю., Сайфуллаев Б.К., Раджабов А.Ю., Нишиаки Й., Наганума М., Наката Х., Мики Т. Памятники палеолита в Яккабагском раёне Кашкадаринской области и Нуратинском раёне Навоийской области // Археологические исследования в Узбекистане 2013-2014 года. Вып. 10. Самарканд, 2016. С. 299-306.
5. Brezillon M.N. La dénomination des objets de pierre taillée // Archéologie. – Paris, 1971. Vol. 24, N 1. P. 127-272.
6. Pelegriin J., - Les techniques de débitage laminaire au Tardiglaciaire : critères de diagnose et quelques réflexions. Paris, 2000.– P.73-86.